

## **Wings for Growth (Wingrow) loyihasi materiallaridan foydalanish qoidolari**

«ELENA-CO» MCHJ direktorining 2026-yil 4-maydagi 01-OF-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (1-ilova).

Ushbu qoidalar Wings for Growth loyihasi (keyingi o'rinlarda – Wingrow) tomonidan taqdim etiladigan axborot materiallariga kirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

### **1. Kelishuv predmeti**

To'lovni amalga oshirish orqali Foydalanuvchi **Career-Premium** paketi (keyingi o'rinlarda – Kurs) materiallaridan foydalanish huquqini qo'lga kiritadi. To'plamga quyidagilar kiradi: Wingrow asoschisining xalqaro aviakompaniyalarga tayyorlanish uchun qo'llanmasi, 105 dan ortiq savol va javoblar, turli murakkablikdagi mavzular, arifmetika va mantiq bo'yicha interaktiv testlar (2 ta to'plam), geografiya (2 ta to'plam), uchuvchilar uchun interaktiv savollar (2 ta to'plam) — barchasi rus, ingliz va o'zbek tillarida; lug'at, «Qoida 30» mashqlari va ingliz tili bo'yicha interaktiv testlar (3 ta to'plam); bonus materiallar.

Kirish huquqi loyihaning amaldagi mavjudligi davrida (domen va serverning Internet tarmog'ida mavjudligi) taqdim etiladi. Ijrochi platformani qo'llab-quvvatlashni to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi va bu haqda foydalanuvchilarni kamida 30 kun oldin xabardor qiladi.

### **2. Foydalanish qoidolari**

Barcha taqdim etilgan fayllar faqat shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan. Quyidagilar qat'iyani taqiqlanadi:

- Materiallarni nusxalash yoki tarqatish.
- Kirish huquqini qayta sotish yoki kontentni e'lon qilish.
- Login/parolni uchinchi shaxslarga berish.

### **3. Xavfsizlik va qurilmalar cheklovi**

Kirish huquqi bitta Emailga biriktirilgan. Tizim bir vaqtning o'zida ikkitadan ortiq (2) qurilma yoki brauzerdan foydalanishni cheklaydi. Uchinchi qurilmadan kirishga urinishda kirish avtomatik bloklanadi. Blokdan chiqarish uchun Foydalanuvchi avvalgi qurilmalardagi faol seanslarni yakunlashi lozim.

### **4. Xizmat ko'rsatish tartibi va to'lovni qaytarish shartlari**

**4.1 Xizmat ko'rsatilgan vaqt.** Xizmatlar qiymati Ijrochi saytining tegishli sahifasida ko'rsatilgan. Kurs materiallariga kirish huquqi to'lov amalga oshirilgan zahoti to'liq hajmda taqdim etiladi. Shaxsiy kabinetga kirish imkoniyati ochilgan vaqtda xizmat to'liq ko'rsatilgan hisoblanadi. **Loyiha tizimida foydalanuvchi maqomining avtomatik o'zgarishi xizmat ko'rsatilganligining texnik tasdig'i hisoblanadi.**

**4.2 Qaytarib berilmaslik xususiyati.** Shartnoma predmeti raqamli kontentga kirish huquqini berish bo'lganligi sababli, to'lov qaytarilmaydi.

**4.3 Texnik qaytarish shartlari.** To'lov faqat texnik xatoliklar yuz berganda (ikki marta pul yechilishi, kirish 24 soat ichida ochilmasligi) qaytarilishi mumkin. Texnik xatoliklar bo'yicha barcha da'volar Ijrochining elektron pochta manziliga (quyidagi rekvizitlarda ko'rsatilgan) murojaat qilinganidan so'ng oqilona muddatda ko'rib chiqiladi.

**4.4 Xalqaro kartalar.** Visa/Mastercard orqali to'lov qilinganda, qaytarish xalqaro to'lov tizimlari (MPS) qoidalarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

#### **5. Javobgarlik**

Materiallar axborot xususiyatiga ega. Wingrow intervyu natijasiga kafolat bermaydi, chunki yakuniy qaror nomzodning shaxsiy fazilatlarini va ko'nikmalariga bog'liq.

#### **6. Texnik shartlar**

Ijrochi materiallarga kirishni "boricha" tamoyili asosida taqdim etadi. Ijrochi Foydalanuvchi tomonidagi internet sifati uchun javobgar emas. Internet signali pastligi to'lovni qaytarish uchun asos bo'lmaydi. Foydalanuvchi brauzerlarning (Chrome, Safari, Firefox va h.k.) yangilangan versiyalaridan foydalanishni o'z zimmasiga oladi.

#### **7. Fors-major**

Tomonlar o'z ixtiyorlariga bog'liq bo'lmagan holatlar (texnogen avariya, aloqa tarmoqlaridagi uzilishlar, davlat organlarining hujjatlari va h.k.) yuz berganda javobgarlikdan ozod etiladilar.

